

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ**

2022 №9

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
АХВОРОТНОМАСИ



ВЕСТИК
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент

ТРИБУНА МОЛОДЫХ

STAND OF THE YOUNG

Стр.

- Рўзиев Б.Ў. ЁШЛАР ОНГИ ВА МАҶНАВИЯТИНИ ИН-
ТЕРНЕТ ВА ИЖТИМОЙ ТАРМОҚЛАР ТАЪСИРЛА-
РИДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШ ОМИЛЛАРИ Roziev B.O. FACTORS OF PROTECTING THE MIND AND
SPIRITUALITY OF YOUNG PEOPLE FROM THE INFLU- 197
ENCES OF THE INTERNET AND SOCIAL NETWORKS

- O'taev G'.G'. YANGI O'ZBEKSITON TARAQQIYOTIDA
INNOVATSION TAFAKKUR VA YOSHLARNING Otaev G.G. INNOVATIVE THINKING AND SOCIAL-PO-
UTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGI LITICAL ACTIVITY OF YOUTH IN THE DEVELOPMENT 200
OF THE NEW UZBEKISTAN

ИСТОКИ

ORIGINS

Стр.

- Maxmudov L.Yu. MARKAZIY OSIYODA O'ZBEK IDENTI- Makhmudov L.Yu. THE FACTOR OF ISLAM AND CER-
KLIGI SHAKLLANISHIDA ISLOM DINI OMILI VA AYRIM TAIN SIGNS IN THE FORMATION OF UZBEK IDENTITY 203
BELGILARI IN CENTRAL ASIA

- Махмудов Л.Ю. ЁШЛАР ЭКОЛОГИК МАДАНИЯ- Makhmudov L.Yu. THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN
ТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТ- FORMING YOUTH'S ECOLOGICAL CULTURE 205
ЛАРНИНГ ЎРНИ

- Искандаров Ш.А. МАРКАЗИЙ ОСИЁ АРАБЛАРНИНГ Iskandarov Sh.A. FAMILY CEREMONIES OF CENTRAL
ОИЛАВИЙ МАРОСИМЛАРИ ASIAN ARABS 208

**YANGI O'ZBEKSITON TARAQQIYOTIDA INNOVATSION TAFAKKUR VA YOSHLARNING
IJTIMOIY-SIVOSIY FAOLLIGI**

O'taev G.G.

**ИННОВАЦИОННОЕ МЫШЛЕНИЕ И ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ В
РАЗВИТИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

Отаев Г.Г.

**INNOVATIVE THINKING AND SOCIAL-POLITICAL ACTIVITY OF YOUTH IN THE DEVELOPMENT OF THE
NEW UZBEKISTAN**

Otaev G.G.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Аннотация: Социально-политическая активность молодежи является одним из основных показателей современного общества. Ведь молодежь – это мобилизованный ресурс общества, определяющий будущее страны.

В статье описывается важность возможностей инновационного мышления в развитии нового Узбекистана и усилия, предпринимаемые в этом отношении в нашей стране. Также акцентируется внимание на качествах нового мышления молодежи и его роли в развитии нашего общества.

Ключевые слова: Инновации, инновационное мышление, инновационные исследования, инновационное развитие, стратегия Нового Узбекистана, наука, технологии, технологии, молодежь, государственная политика в отношении молодежи, инновационное мышление, реализация потенциала молодежи, стратегия «Молодежь-2030», уникальность молодежи, политика, общественно-политическая активность молодежи, молодежная культура.

Abstract: Social and political activity of young people is one of the main indicators of modern society. Because young people are a mobilized resource of the society, determining the future of the country.

The article describes the importance of innovative thinking opportunities in the development of the new Uzbekistan and the efforts being made in this regard in our country. It also focuses on the qualities of new thinking of young people and its role in the development of our society.

Key words: Innovation, innovative thinking, innovative research, innovative development, strategy of New Uzbekistan, science, technology, technologies, youth, state policy regarding youth, innovative thinking, realization of youth potential, "Youth - 2030" strategy, uniqueness of youth policy, socio-political activity of youth, youth culture.

Jahondagi globallashuv jarayonlari, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj, fan-tehnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish kabi ko'plab talablarni qo'yemoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar manfaatlari yanada to'liq ta'minlashga yo'naltirilgan, ularning jamiyatda o'z o'rniiga ega bo'lishini kafolatlashga xizmat qiladigan huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda g'oyaviy-mafkuraviy tadbirilar tizimli tarzda amalga os-hirilmoqda.

Ming afsuski, o'zi va o'zgalarining taqdiriga, kelajagiga befarqlik, shafqatsizlik, ishyoqmaslik, halol mehnatdan bo'yin toplash, axloqsizlik, engil-elpi va boshqalar hisobiga kun kechirish, giyohvandlik, o'g'irlik, jinoyatchi guruuhlar, ekstremistlar va terroristlar faliyatida ishtirok etish ham jamiyatning aynan navqiron yoshdagagi a'zolarini o'z domiga tortayotgani sir emas.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning quydagi fikrlari: "Bugun qancha yoshlar soxta aldonlarga uchib, o'z umrini xazon qilayotganini o'ylab, to'g'risi, tunlari uxlamasdan chiqaman. O'zingiz aytin, aziz birodarlar, bu achchiq haqiqat yuragimizga xanjar bo'lib sanchilishi kerak emasmi? Axir, kechagina shu yoshlar, o'zimizning qorako'zlar, birimizning mahalladoshimiz, birimizning o'g'limiz, birimizning qizimiz yoki jiyanimiz edi-ku! Ular qachon adashdi, qachon noto'g'ri yo'lga kirib ketdi? Biz nega g'aflatda qoldik? Qachon, qaerda xatoga yo'l qo'yidik? Farzandlarimiz qachon begonalarning qo'liga o'tib ketdi? Nima jin urdiyu ular o'z ota-onasi, o'z yurtining dushmaniga aylanib qoldi? Bugun bu mudhish balo-qazoning oldini olmasak, bor kuchimizni shunga safarbar etmasak, ertaga kech bo'ladi" [1.], deya ta'kidlaganlari har bir kasb egasiga dolzarb vazifa bo'lishi zarur.

Ota-bobolarimizdan qolgan aqliy merojni ko'paytirish, manbalarni batatsil o'rganib, bugungi taraqqiyotga mos yo'nalish va imkoniyatlardan samarali foydalanish joiz. Zotan, hozir aholi, ayniqsa, yoshlarining yangi innovatsion va raqamli texnologiyalarga qiziqishi katta. Chunki busiz muvaffaqiyatga erishish mumkin emasligi tobora ravshanlashmoqda.

Har bir mamlakatning kelajagi bevosita innovatsiyalarga bog'liq, bularsiz taraqqiyotni ta'minlash, mamlakat raqobatbardoishi va aholi farovonligini oshirish masalasi murakkablashib boraveradi.

Buning uchun Bu jarayon bog'liq bo'lgan mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rishimiz, echimini topish uchun tegish li "yo'l xarita"lari ishlab chiqib, ijrosini kechiktirmasligimiz lozim. Jumladan, farzandlarimizga, asosan, aqliy mehnat bilan shug'ullanib, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqadigan, ularni hayotga tatbio qilib, boy bo'ladigan ishni o'rgatishimizni davrning o'zi talab qilmoqda.

Chunki Uchinchi Renessans poydevori osmonidan tushmaydi, uni o'zimizning farzandlarimiz bунyod etadi. Ayniqsa, ta'lim zanjirining birorta bo'g'iniida sifatga e'tibor susaymasligi lozim. Shundagina ko'zlangan maqsadga to'liq erishamiz. Bu sa'y-harakatlar Yangi O'zbekistonning rivojlangan 50 mamlakat qatoridan joy egallashida asos boladi.

Barchamizga ma'lumki, har qanday innovatsion rivojlanishni zamoniaviy bilimlar, ilmiy-teknik ixtiolar va ishlannalar, yangilik izlashga ishtiyoq kabilardan iborat innovatsion tafakkursiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bunda innovatsion tafakkur tarkibini so'f ilmiy tadqiqot izlanishlaridan iborat intellektual sub'ektiv jarayonlar bilan birga ijtimoiy borliqning turli tomonlarini teran anglash bilan bog'liq bo'lgan jihatlar ham tashkil qiladi. Jumladan, Vatan ravnaqi, yurt rivoji, inson hayoti va turmushimi yaxshilash, shaxsning huquq va erkinliklari himoya qilish, uning ijodiy salohiyatini ro'yogba chiqarish kabilalar bilan bog'liq jarayonlar ham innovatsion tafakkurning mazmun-mohiyatini tashkil qiladi. Zero, inson ongli mavjudot sifatida doimiy ravishda izlanadi, yaratuvchilik faoliyat bilan shug'ullanadi. Uning hayoti va turmushi bemaqsad vaqt va umr o'tkazishdan iborat emas.

O'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslar - yoshlar hisoblanadi.

Mamlakatimizning porloq istiqbollari haqida yuksak maqsad va rejalar belgilangan. Bu yo'nalishda, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi 406-soni Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-tonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi, Davlatimiz rahbari tomonidan 2019 yil 19 martda ilgari surilgan "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim besh tashabbus", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 fevraldagagi 133-f sonli farmoyishi va O'zbekistonda yoshlarga oid

davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlanirish konsepsiysi muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamenti, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil qilindi. Hududlarda «Loyihalar fabrikasi» ish boshladi.

Iqtidori yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jondantirish, mamlakat ilm-fanining xalqaro miqyosdagi raqobatbardoishiligini ta'minlash, mavjud ilmiy mabtablar salohiyatini yanada mustahkamlash hamda ularning innovatsion salohiyatini rivojlanirish maqsadida "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar akademiyasi tashkil etildi.[2]

Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy yoshlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.2022 yildagi PQ-92-son qarorida [3.] Har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallalarda yoshlar etakchisi lavozimi joriy etilishi va uning qo'yidagi asosiy vazifalarini;

- «Yoshlar balansi»ni shakllantirish, yoshlar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni «Yoshlar daftari» va «Yoshlar portalı» elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish;

- mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivalari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

- yoshlarning ijtimoiy faoliygini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batalantirish hamda hajyotda o'z o'rinni topishlariga ko'maklashish;

yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash belgilangan.

Undan tashqari Yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va huquqiy savodxonligini oshirish va yoshlar daftariga kiritilgan yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb qilish, yoshlarning xorijda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiya-

sini tashkil etish kabi yoshlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun beriladigan subsidiya, kompensatsiya va moddiy yordam turlari "Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 07.06.2022 yildagi 312-sonli qarorida[4.] ishlab chiqilganini ko'rishimiz mumkin.

Kulosa sifatida shuni aytilib o'tish lozimki, innovatsion tafakkur ijtimoiy tarakkiyot extiyoji, ob'ektiv zaruriyatdir. Bu zaruriyatni ratsional tarzda anglash inson aklu idrokining maxsuli sifatida idrok etish jamiyat tarakkiyotiga oid ijtimoiy falsafiy bilimlarni takozo etadi. Mazkur bilim yangilanish moxiyatini davr talablariga muvofiq idrok etish, ammo bu gnoseologik izlanishlar ziddiyati kechishni unutmaslikni anglatadi. Innovatsion tafakkur tub yangilanish uzgarish yasashga karatilgan onguing, aklu idrokning izlanishidir. Ratsionalga tayanish uning asosiy me'todidir Ushbu yondashuvni anglamaguncha, unga tayanmaguncha biz innovatsion tafakkurning funksional xususiyatlarini obektiv baxolay olmeymiz.

Adabyoitlar:

- Mirziyoev SH. "Milliy yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". Toshkent: O'zbekiston. 2017 y. 479 bet.
- PQ-4433-son 30.08.2019. <https://lex.uz/docs/4494504>

- PQ-92-son 19.01.2022y. <https://lex.uz/docs/5831865>
- VM-312-son 07.06.2022. <https://lex.uz/docs/6051791>

YANGI O'ZBEKSITON TARAQQIYOTIDA INNOVATSION TAFAKKUR VA YOSHLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGI

Otaev G.G.

Annotatsiya: Yoshlarning ijtimoiy-siyoziy faoliyi - zamonaviy jamiyatning asosiy ko'satkichlaridan biridir. Chunki yoshlar mamlakat kelajagini belgilab beruvchi jamiyatning safarbar etiluvchi resursidir.

Maaolada yangi O'zbekiston taraqqiyotida innovatsion tafakkur imkoniyatining ahamiyati va bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bayon qilingan. Shuningdek unda yoshlarning yangicha fikrlash faziletlari va uning jamiyatimiz taraqqiyotidaqи о'рни masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsion tafakkur, innovatsion izlanish, innovatsion taraqqiyot, Yangi O'zbekiston strategiyasi, ilm-fan, texnika, texnologiyalar, yoshlar, yoshlarga oid davlat siyosati, innovatsion tafakkur, yoshlar salohiyatni ro'yobga chiqarish, "Yoshlar - 2030" strategiyasi, yoshlar siyosatining o'ziqa xosligi, yosh-larning ijtimoiy-siyoziy faoliyi, yoshlar madaniyati.